

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

JUMABAEV DAULETBAY MARATOVICH

**NUKUS SHAHRIDA TRANSPORT INFRASTRUKTURASINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Jumabaev Dauletbay Maratovich

Nukus shahrida transport infrastrukturasi rivojlanish tendensiyalari 3

Жумабаев Даулетбай Маратович

Тенденции развития транспортной инфраструктуры в городе Нукус..... 25

Jumabaev Dauletbay Maratovich

Trends in the development of transport infrastructure in the city of Nukus..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

JUMABAEV DAULETBAY MARATOVICH

**NUKUS SHAHRIDA TRANSPORT INFRASTRUKTURASINING
RIVOJLANTRISH TENDENSIYALARI**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/A149-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda o'zbek, rus, ingliz (rezyume), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xotamov Asadulla Toshtemirovich
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy
opponentlar:**

Adilov Zarifjon Himmatovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Xoliqov Alisher Isan o'g'li
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zshaharsozlikLITI” DUK

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD 26/04.07.2023.T.11.03 raqamli ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning 2024 yil 26 август kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko'chasi, 9-uy. tel.: +998 (71) 142 65 85).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» «_____» kuni tarqatildi.

(2024 «__» «_____» gi №__ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.X. Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
rais o'rinbosari, arx.f.d., dotsent

F.A. Abdixalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

I.S. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda 2030 yilga kelib dunyo aholisining aksariyati shaharlarda jamlanib, 2050 yilda dunyo aholisining 80% dan ortig'i shahar muhitida yashashi kutilmoqda. Shaharda aholi sonining o'sishi natijasida transport muammolari ham o'z navbatida oshib bormoqda. Jahonda transport muammolarini hal qilish tezligi hozirda yetarli emas, chunki bu muammolarning aksariyati bevosita va bilvosita salbiy ta'sirga ega. Bu muammolarga avvalombor, shaharlarda mavjud ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini pasayishi, bir sathli chorrahalarining ko'pchiligida transport vositalarining tirbandliklari vjudga kelishi, shahar jamoat transportining xizmat sifati pasyishiga, shuningdek savdo komplekslarida, jamoat ob'ektlarida, turar-joy maskanlarida avtotransport vositalarini to'xtash va saqlash uchun joylarining tanqisligi, ayniqsa, murakkab rejada shakllangan qadimiy shaharlarda bu masalalarning yechimida o'ziga xos yondoshuvni talab qilmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Singapur, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda shahar transport infrastrukturasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu masalalarda, jumladan, shaharlar va shaharlararo aloqalarni rivojlantirish uchun transport infrastrukturasi xizmatlariga bo'lgan talablarni qanotlantiradigan zamonaviy yo'lovchi transporti tizimini yaratish, transport va piyodalar harakatini loyihalash va uni samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jahonda shahar transport infrastrukturasi kompleks rivojlantirish, xususan, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasini pasaytirish va shahar jamoat yo'lovchi transporti xizmatining samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, ko'cha-yo'l tarmog'ining texnik parametrlarini yaxshilash va jamoat transporti turini ko'paytirish orqali ko'cha-yo'l tarmog'ining yuklanganlik darajasini pasaytirish hamda aqlli transport tizimi texnologiyalaridan foydalanib jamoat transporti yo'nalishlari xaritasini ishlab chiqish, aholiga hududlar kesimida jamoat transporti yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish, transport tizimini rivojlantirish uchun investitsiyalarini asoslash kabi maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, shahar aholisining faol hayotini ta'minlash va uning samaradorligini oshirish uchun shahar transport infrastrukturasi muqobil rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz shaharlaridagi ko'cha-yo'l tarmog'ida harakat miqdorining oshishi va tarkibining o'zgarishi, harakat tezligining pasayishi natijasida yo'lning o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayishi kuzatilmoqda. Bu borada shahar ko'chalarining funksional vazifasidan kelib chiqib, harakat xavfsizligi me'yorlarini hamda yo'lning texnik parametrlarini belgilab beradigan loyihaviy yechimlarni tatbiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmonida 2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Yo'l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish, yo'llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlarni yaratish va jamoatchilikning

ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlashga hamda "Ochiq budjet" axborot portali orqali yo'naltiriladigan mablag'lardan aynan mazkur yo'nalishda samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish»¹ bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni hal etishda, xususan Bu borada **barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish, shuningdek, shahar ko'cha-yo'l tarmog'ida harakati xavfsizligiga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq etish, shahar jamoat transporti harakatini optimallashtirish, shahar ko'chalarining funksional tasnifini ilmiy asoslash** muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda PF-5890-son "O'zbekiston Respublikasi yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 14-fevralda PF-4954-son "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 7-iyulda PQ-311-son "Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo'nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida", 2018-yil 6-martda PQ-3589-son "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 16-fevralda PQ-59-son "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 6-dekabrda 250-son "Nukus shahrining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 26-iyulda 584-son "Avtomobil yo'llari infratuzilmasini yanada rivojlantirish va yo'l harakatini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, transport infrastrukturasini rivojlantirish bo'yicha mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shahar transport infrastrukturasi rivojlantirish bo'yicha hamda harakat xavfsizligini takomillashtirish masalasida MDHda V.F.Babkov, V.I.Gavrilyuk, A.V.Kossov, I.A.Baxriev, Ye.N.Esovik, D.N.Vlasov, xorijda S.Goldberg, M.Raff, F.Vitsler, Freng Xeyt, Ronald Dryu, R.Bayett, R.Uotts, O'zbekistonda A.F.Shaxidov, A.Sadixo'jaev, Q.X.Azizov, I.S.Sodiqov, A.X.O'roqov, J.I.Sodiqov, I.S.Shukurov, A.Xudoyberdiev, J.Yunusov, Q.T.Usmanov, F.A.Abdixalilov, Z.I.Xudoyberdiev, A.A.Sattorovlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotlar natijasida transport infrastrukturasiga oid muammolar va ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqayotgan sabablar hamda jahonning turli megapolislarida bu muammolarni bartaraf etishda qo'llanilayotgan yechimlar yoritib berilgan.

Yurtimiz transport tizimiga tegishli ko'pgina muammolar, jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

shaharlarning funksional zonalaridan kelib chiqqan holda shahar ko'cha-yo'llarining klassifikatsiyasi, ularga qo'yiladigan meyoriy-texnik talablar, shahar ko'cha-yo'llarini obodonlashtirish va jihozlashga qo'yiladigan me'yoriy talablar to'liq ishlab chiqilmagan, hali chuqur o'rganilmagan bo'lib, yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Bu esa shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining loyihaviy yechimlarini takomillashtirishning o'ziga xos usullariga va hisoblash jarayonlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq №40/2023 "Nukus shahrining transport va yo'l transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nukus shahrining transport infrastrukturasi rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Nukus shahri ko'ch-yo'l tarmog'ining zichligin tahlil qilish;

Nukus shahri hududidagi chorralarda transport oqimining jadalligi va tarkibini eksperimental tadqiq etish;

Transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha Nukus shahri aholisining fikrlarini o'rganish;

Nukus shahar ko'cha-yo'l tarmog'ining shaharsozlik ahamiyati va funksional vazifasidan kelib chiqib loyiha parametrlarini tadqiq etish;

Nukus shahar yo'lovchi transporti faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Asosiy piyodalar va velosiped aloqalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Nukus shahrining transport infrastrukturasi elementlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Nukus shahri transport infrastrukturasi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tashkil etidi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda avtotransport harakati jadalligi, tezligi va tarkibini o'rganish uchun kuzatish hamda o'z-ora bog'likligining matematik modellari, transport infrastrukturasi rivojlantirish tendensiyalarini ishlab chiqish uchun shahar aholining fikrlarini o'rganishda va prognozlashda nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Nukus shahri uchun shahar maydonining funksional parametrlariga ko'ra KYT uzunligining shahar umumiy maydoniga nisbati orqali shahar ko'cha-yo'l tarmog'i (KYT) zichligi aniqlangan;

Nukus shahri hududidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va shahar ahamiyatidagi magistral yo'llari bo'yicha avtotransport harakati jadalligining dastlabki kartogrammasi kuzatuv video kameralar orqali olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan;

Nukus shahri hududidagi avtotransportlar sonini istiqboldagi o'sishini prognoz qiluvchi chiziqli modeli naturaviy kuzatuvlarga ko'ra ishlab chiqilgan;

Shahar ko'cha-yo'llarini loyihaviy parametrlari hamda texnik talablarini belgilovchi klassifikatsiyasi hududning shaharsozlik ahamiyati va funksional vazifasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nukus shahri aholisining transport harakatchangligini aniqlash uchun shahar hududidagi mahalla fuqoralar yig'ining ko'cha-yo'l tarmaogi zichligi aniqlangan;

Nukus shahri KYT zichligi jahonning boshqa shaharlari KYT o'rtacha zichligiga nisbatan aniqlangan;

iRAP xalqora xavfsizlik baholash dasturi metodologiyasi asosida shahar ahamiyatidagi O'zbekiston va Ernazar Alakoz magistral ko'chalari avtomobil, piyodalar, velosipedlar va motosikillarga xavfsizlik darajasi baholangan;

Nukus shahrining markazdagi chorrahalarining harakat jadalligi, tarkibi va yuklanganlik darajasi naturaviy kuzatishlar natijasida aniqlandi va olingan natijalar asosida matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumiy xulosalar, Nukus shahrida faoliyat ko'rsatayotgan yo'lovchi transportini yo'nalishlarini qayta rejalashtirish, shahar transport infrastuktursini rivojlanishga bog'likligi, hisobiy va eksperimental natijalarining o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Nukus shahrining transport infrastrukturasidan olingan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan chorrahalaridagi harakat jadalligi va tarkibining o'zaro bog'liqlik matematik modeli, ko'cha yo'l tarmog'i zichligi hamda yangi avtobus yo'nalishlari mazkur infrastrukturaning istiqbolini belgilashda, ko'chalarning o'tkazish qobiliyatini prognoz qilishda, avtotransport vositalarining o'sib boruvchi soniga nisbatan ularning infrastrukturaviy rivojlanishiga ta'siri bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Nukus shahri ko'cha-yo'l tarmog'ining zichligi, mahalalar bo'yicha ko'cha-yo'l tapmog'i zichligi hamda Nukus shahri hududidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagi yo'llarning harakat jadalligi kartogrammasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nukus shahri transport infrastrukturasini rivojlantirish tendentsiyalarin ishlab chiqish maqsadida transport infrastrukturasini bo'yicha olingan natijalar asosida:

ilk bor Nukus shahri uchun shahar maydonining funksional parametrlariga ko'ra KYT uzunligining shahar umumiy maydoniga nisbati orqali shahar ko'cha-yo'l tarmog'i (KYT) zichligi aniqlangan xulosadan "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti"ning "O'zbekiston shaharsozlik normalari va qoidalarini modernizatsiya qilish" da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 15 apreldagi 24-06/3811-son ma'lumotnomasi). Natijada shaharda KYT ning o'tkazish qobiliyati yaxshilangan;

Nukus shahri hududidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari va

shahar ahamiyatidagi magistral yo'llari bo'yicha avtotransport harakati jadalligining dastlabki kartogrammasi kuzatuv video kameralar orqali olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan xulosadan "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti" ning "O'zbekiston shaharsozlik normalari va qoidalarini modernizatsiya qilish" da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 15 apreldagi 24-06/3811-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur magistral ko'chalarda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar xavfsizlik darajasini talab darajasida pasaytirishga imkon bergan;

Nukus shahri hududidagi avtotransportlar sonini istiqboldagi o'sishini prognoz qiluvchi chiziqli modeli naturaviy kuzatuvlarga ko'ra ishlab chiqilgan xulosadan "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti" ning "O'zbekiston shaharsozlik normalari va qoidalarini modernizatsiya qilish" da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 15 apreldagi 24-06/3811-son ma'lumotnomasi). Natijada Nukus shahrining istiqbolli bosh rejasini ishlab chiqish uchun KYTning optimal rivojlanishi imkonini bergan;

Shahar ko'cha-yo'llarini loyihaviy parametrlari hamda texnik talablarini belgilovchi klassifikatsiyasi hududning shaharsozlik ahamiyati va funksional vazifasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan xulosadan "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti" ning "O'zbekiston shaharsozlik normalari va qoidalarini modernizatsiya qilish" da foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 15 apreldagi 24-06/3811-son ma'lumotnomasi hamda "Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti"ning 2024 yil 27 yanvardagi 15-son dalolatnomasi). Natijada shahar va aholi punktlarining funksional vazifasidan kelib chiqib, shahar ko'chalari va yo'llarini rejalashtirish va texnik parametrlarini belgilash orqali loyihaviy yechimlarni optimallashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida maruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining natijalari 15 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan nashrlarda 9 ta ilmiy maqola (ulardan 2 tasi xalqora: 1 tasi Web of science bazasidagi va 1 tasi yuqori "Impact Factor"ga ega jurnallarda), 6 ta tezislar konferentsiya materiallarida (ulardan 4 tasi xalqora konferentsiyalarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Nukus shahri transport infrastrukturasi holatini kompleks boholash**” deb nomlangan birinchi bobida, Nukus shahri transport tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar, shahar hududidagi transport infrastrukturasi holati, piyodalar va velosiped yo'laklari, ko'cha-yo'llarining tasnifi va ko'cha-yo'l tarmog'ining rivojlanishi bosqichlari tahlil qilingan.

Jahon shaharsozligi tajribasida transport infrastrukturasi rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu – shahar ko'cha-yo'l tarmog'i (KYT)ning zichligi (δ) dir. Bu ko'rsatkich KYT uzunligining shahar maydoniga nisbati bilan tavsiflanadi:

$$\delta_{um} = L/S \quad (1)$$


bu yerda: δ_{um} - shaharning umumiy KYT zichligi, km/ km²; L_{um} - umumiy ko'cha-yo'l tarmog'ining uzunligi, km; S - shaharning umumiy maydoni, km², Nukus shahridagi barcha ko'chalarning umumiy uzunligi – 794,071 km, shahar maydoni 221 km². Bundan 1-formulaga asosan shaharning umumiy KYT zichligi (δ_{um}) kelib chiqadi:

$$\delta_{um} = L/S = 794.071 \text{ km} / 221 \text{ km}^2 = 3,6 \text{ km/km}^2$$

Huddi shunday, Nukus shahridagi asosiy (jamoat transporti qatnaydigan) ko'chalarning uzunligini shahar umumiy maydoniga nisbatidan – asosiy ko'chalarga nisbatan shaharning asosiy KYT zichligi (δ_{as}) kelib chiqadi:


$$\delta_{as} = L/S = 177,43 \text{ km} / 221 \text{ km}^2 = 0,99 \text{ km/km}^2$$

Bu ko'rsatkichning dunyoning boshqa shaharlari ko'rsatkichlariga nisbati 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Ba'zi shaharlarning maydoni va aholisi soniga nisbatan ko'cha – yo'l tarmog'i zichligi.

Nukus shahri aholisining transport harakatchanlik ko'rsatgichini aniqlash maqsadida ko'cha-yo'l tarmog'ining zichliklarini mahalla fuqoralar yig'inilari bo'yicha taqsimlanishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Nukus ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining zichliklarini mahalla fuqoralar yig‘inilari bo‘yicha taqsimlashi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ishki ishlar vazirligi Yo‘l harakati havfsizligi boshqarmasi Ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi mavjud ma‘lumotlar bazasida Nukus shahri kesimida yillar kesimida 01.01.2023 yilga qadar ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalar soni soni 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Nukus shahridagi jami avtotransportlar soni.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki Nukus shahrida 2022 yil avtotransportlar soni 37529 dona, shundan 31746 dona, yoki 85% jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda. Demak, 2018-2022 yillarda avtomashinalar soni 2,2 barobar, yanii yiliga o‘rtasha 21.75 % ko‘paygan. Bu shahar aholisining turmush darajasi va farovonligi yuksalayotganini,

shu bilan birga, bu ko'rsatgish yanada o'sishi va avtomobil yo'llari sifatini yaxshilashni taqozo etmoqda.

Nukus shahri hududini rivojlantirish bo'yicha 2023 yilning may oyida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra shahar aholisining xohish-istaklarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, piyodalar uchun mavjud infrastruktura yetarli emas. Umuman olganda, respondentlarning taxminan 35.1 foizi Nukus shahri bo'ylab piyoda harakatlanishni xohlashadi (4-rasm).



4-rasm. Nukus shahri hududini rivojlantirish bo'yicha shahar aholisining xohish-istaklarini o'rganish so'rovnoma natijalari.

O'rganilgan tahlillar asosida Nukus shahridagi piyodalar va velosiped infrastrukturasi asosiy kamchiliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- piyodalar yo'laklari va piyodalar zonalarini kengligining yetishmasligi;
- yo'laklardagi to'siqlar (ustunlar, savdo ob'ektlari va boshqalar);
- yo'lka qoplamasining eskirishi;
- piyodalar va maysazorlarda to'xtash joyi;
- piyodalar yo'laklari va ulardagi yoritish qurilmalarining tanqisligi;
- kam harakatchan aholi guruhlari uchun alohida yo'laklarning mavjud emasligi;
- velosiped yo'llarining yetishmasligi.

Nukus shahrining shahar ahamiyatidagi O'zbekiston, Allayar Dosnazarov va Beruniy magistral ko'chalarning hamda tuman ahamiyatidagi Islom Karimov va Qoraqalpog'iston magistral ko'chalarining mavjud holati bo'yicha texnik parametrlarini ShNK 2.07.01-03* me'yori bo'yicha taqqoslanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mavjud magistral ko'cha-yo'llar holatining texnik parametrlarining ShNK 2.07.01-03* me'yori bo'yicha taqqoslanishi

Ko'chalar toifasi	Harakatning hisobiy tezligi km/s	Harakat yo'lagingning eni, m	Harakat yo'lagingning soni	Trotuarning eng katta eni, m
ShNK 2.07.01-03* bo'yicha me'yor				
I. Umumshahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar:	100	3,75	6-8	4,5
to'xtovsiz harakat				
tartibga solinuvchi harakat	80	3,75	4-8	4,5
Mavjud holati				
Shahar ahamiyatidagi O'zbekiston	60	3,5	6	2

magistral ko'chasi.				
Shahar ahamiyatidagi Allayar Dosnazarov magistral ko'chasi.	60	3,5	6	2,25
Shahar ahamiyatidagi Beruniy magistral ko'chasi.	60	3,5	6	2,25
ShNK 2.07.01-03* bo'yicha me'yor				
II. Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar	60	3,75	3-4	3,0
Mavjud holati				
Tuman ahamiyatidagi Islom Karimov magistral ko'chasi	60	3	4	2,25
Tuman ahamiyatidagi Qoraqalpog'iston magistral ko'chasi.	60	3	4	2,25

Ekspirimental tadqiqotlar natijasida Nukus shahrining transport kompleksi faoliyatida yuzaga kelgan asosiy muammolar aniqlandi va ular quyidagilardan iborat:

1.Ko'cha-yo'l harakatiga ko'p vaqt sarflanishi:

- ko'cha-yo'l tarmog'idagi tirbandliklar;
- jamoat transporti vositalarining quyi tezlikda harakatlanishi.

2.Jamoat transporti harakatidagi qulayliklarning past darajada ekanligi (barchamizga ma'lumki, shahar aholisining deyarli 50%i jamoat transporti foydalanuvchilaridir):

- jamoat transporti harakatidagi yuqori intervallar;
- tig'iz paytlardagi ortiqcha yuklanish;
- yo'nalish tarmog'ining nomaqbulligi, ya'ni ommabop yo'nalishlarda transport vositalari tanqisligi.

3.Shaxsiy transport vositalarini saqlash muammosining hal etilmaganligi:

- doimiy saqlash uchun mo'ljallangan avtoturargohlarda joy masalasi taqchilligi, xususan xizmat maskanlari hududida;
- ko'pgina kishik tumanlar hududlarida doimiy saqlash uchun avtoturargohlarning mavjud emasligi;
- vaqtincha saqlash uchun avtoturargohlarning tanqisligi, ayniqsa, shahar markazlarida va aholi gavjum hududlarda;
- vaqtincha xarakterdagi pullik avtoturargohlarning etarli darajada natija bermayotganligi.

4.Transport tizimining havfsiz emasligi:


- yo'l transport hodisalarining yuqori darajada ekanligi, xususan, piyodalar ishtirokida;
- atrof-muhitga zararli ta'sirlarning yuqori darajasi.

Dissertatsiyaning “**Nukus shahri transport infrastrukturasi naturaviy va eksperimental tadqiq etish**” deb nomlangan 2-bobida Nukus shahri hududidagi chorrahalarda transport oqimining jadalligi va tarkibi, shahar yo'lovchi transporti yo'lovchilar oqimiga xizmati va shahar aholisining transport infrastukturasi bo'yicha fikrlarini tahlil qilindi hamda IRAP dasturi bo'yicha ko'chalarning


xavsizlik darajasi baholandi.

Ushbu tadqiqot doirasida mavjud metodologiyaga muvofiq Nukus shahrining asosiy O‘zbekistan guzari, A.Dosznazarov, Qoraqalpog‘iston va E.Alakoz ko‘chalarining harakat oqimi tirband chorrahalarida transport oqimi kunning tig‘iz vaqitlarida tadqiq qilindi. Bunda: chorrahalaridagi harakat miqdori va tarkibi, nuqtalar bo‘yicha harakatlanish yo‘nalishi hamda harakat miqdori va h.k. tadqiq qilindi. Belgilangan kuzatuv tadqiqotlari bir qancha nuqtada o‘tkazildi. Shundan: chorrahadagi kuzatuvlar 4 ta nuqtada va bozor hududida 1 ta nuqtada o‘tkazildi. Chorrahalarda o‘lchovlarini o‘tkazish uchun umumiy vaqt 30 soatni (har bir chorrahada 6 soat)ni tashkil etdi.

Olingan natijalar asosida chorrahaning shartli va masshtabli kartogrammasi shakillantirildi (4-5-rasmlar).




4-rasm. Qoraqalpog‘iston ko‘chasi-O‘zbekiston guzari tutashgan chorrahadagi transport oqimlari intensivligining shartli kartogrammasi.



5-rasm. Qoraqalpog‘iston ko‘chasi-O‘zbekiston guzari tutashgan chorrahadagi transport oqimlari jadalligining masshtabli kartogrammasi.


Qoraqalog'iston Respublikasi yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasining dekabr 2021 yil 14-yanvar holati bo'yicha ma'lumotiga ko'ra Nukus shahri hududidan o'tuvchi yo'llarning o'rtacha kunlik harakat jadaligi 6-rasmda ko'rsatilgan.

Mazkur tadidoqt ishida 2023 yil may oyidan 2023 yil noyabr oyigacha Nukus shahri hududida aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Anketali so'rovnoma olib borish ma'lumot to'plashning asosiy usuli sifatida ishlatildi.




6-rasm. Nukus shahri hududidan o'tuvchi yo'llarning yuklanganlik darajasi (dona).

Respondentlardan transport infrastrukturasini parametrlaridan qanoatlanishi haqida 1 dan 5 gacha bo'lgan shkalada baholab so'rovnoma o'tkazildi, bu erda 1-juda qoniqarsiz, 5-to'liq qoniqarli. Transport infrastrukturasini parametrlaridan qanoatlanish ballarini batafsil taqsimlanishi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Transport infrastrukturasini parametrlaridan qonovatlanish ballarini taqsimlanshi

Nukus aholisi tomonidan ishlatiladigan transportning haqiqiy va istalgan turi bo'yicha taqsimotlar sezilarli darajada farq qiladi. Nukus aholisi foydalanadigan haqiqiy va istalgan transport turining nisbati 8-rasmda keltirilgan.




8-rasm. Nukus aholisi foydalanadigan haqiqiy va istalgan transport turining nisbati

Shuningdek, aholidan tavsiya etilgan transport infrastrukturasini parametrlarini ahamiyati bo'yicha tartibga solish taklif qilindi. Buning uchun respondentlar parametrlarga 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala bo'yicha darajalar berishdi, bu erda 1 eng kam, 5 eng muhim. Transport infrastrukturasini parametrlarining ahamiyati bo'yicha reytingi 2-jadvalda keltirilgan.

Transport infrastrukturasi parametrlarining ahamiyati bo'yicha 5 ballik reytingi

Transport infrastrukturasi parametri	Respondentlarning o'rtacha bahosi
Harakat xavfsizligi	4,57
Yo'llarning sifati	4,21
Sayohat vaqti	3,78
To'siqlarsiz qulay va uzliksiz piodalar yo'lagi tarmog'ining mavjudligi	3,65
Jamoat yo'lovchi transporti bekatining jo'nash va kelish joyidan uzoqligi	3,40
Qatnov qismi orqali ko'chadan tashqari (yer usti/yer osti) piyodalar o'tish joylarining mavjudligi	3,23
Shaxsiy transport vositalarini doimiy saqlash uchun to'xtash joylari mavjudligi	2,40
Velosiped harakati uchun infrastrukturaning mavjudligi	2,1


Nukus shahar yo'lovchi transporti yo'lovchilar oqimiga xizmati tahlili jarayonida shaharda faoliyat ko'rsatayotgan jamoat transportining yo'nalishlarning kunlik tashilgan yo'lovchilar avtomobillar markalari bo'yicha ulishi aniqlandi va bu ko'rsatgish 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Kunlik tashilgan yo'lovchilar avtomobillar markalari bo'yicha ulishi

Nukus shahrida faoliyat ko'rsatayotgan avtobus yo'nalishining (M 3 markali avtomobil) har bir yo'nalishda xizmat ko'rsatayotgan avtotransport soni, yo'nalish masofasi (bir tamonga, km) va kunlik tashilgan yo'lovchilarning soni 10-rasmda keltirilgan.

O'zbekiston - Amir Temur ko'chalar kesishmasidan Ernazar Alakoz-Jumanazarov ko'chalari kesishmasigacha bo'lgan 2200 m ko'chani xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqot jarayonida ko'chada avtomobil bilan videokamera yordamida foto va videosyomka ishlari olib borildi.




10-rasm. Avtobus yo'nalishlarning har bir yo'nalishda xizmat ko'rastayotgan avtotransport soni, yo'nalish masofasi va kunlik tashilgan yo'lovchilarning soni.

Yo'l harakati qatnashchilarining (haydovchi, piyoda, velosipedchi va mototsiklchilar) xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholash uchun iRAP usuli qo'llanildi. O'zbekiston-Ernazar Alakoz ko'chalarida bo'yicha umumiy natijalardan kelib chiqib, transport vositalari (haydovchi), mototsiklchilar, piyodalar va velosipedchilar kabi yo'l foydalanuvchilari uchun halokatlilik riski darajasi 5 yulduzli reyting bilan baholandi (11-rasm).




11-rasm. Tadqiqot obyekti O'zbekiston-Ernazar Alakoz ko'chalarida harakat qatnashchilarining halokatlilik riski darajasi bo'yicha 5 yulduzli reytingi natijalari.



12-rasm. O'zbekiston-Ernazar Alakoz ko'chalarida xavfsizlik indeksi bo'yicha yo'l foydalanuvchilari uchun risk darajasi.

12-rasmdan xulosa qilishimiz mumkinki, xavf indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, yulduzli reyting shunchalik past bo'ladi. Bundan tashqari, avtotransport va mototsikl haydovchilari uchun xavfli yo'l bo'laklari chorrahalar bo'lsa, piyodalar va

velosipedchilar uchun esa yo‘lni kesib o‘tish xavfliroq ekanligini aniqlandi. Olingan natijalarni GIS dasturi yordamida avtomobil yo‘lining turli bo‘laklarini xavfsizlik darajasiga muvofiq ajratish mumkin (13-rasm).



13-rasm. Yo‘l harakati ishtirokchilarining iRAP xavfsizlik reytingiga mos ravishda yo‘l bo‘laklarini ranglar bilan ajratib belgilash xaritasi.

Tadqiqot obekti sifatida Nukus shahridagi shahar ahamiyatidagi O‘zbekiston va Ernazar Alakuz magistral ko‘chalarini piketlarga ajratib jami 44 nuqtasi iRAP dasturi yordamida xavfsizlik reytingiga baholandi. Shundan 5 ta nuqta avtomobil va motosikildagilar ushun havfli, 3 ta nuqta avtomobil, motosikillar va velosipedshilar ushun havfli, 2 ta nuqta avtomobil, motosikillar va piyodalar uchun havfli va 1 ta nuqta piyodalar uchun xavfli darajada baholandi.

“Nukus shahri transport infrastrukturasi rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” deb nomlangan uchinchi bobda Nukus shahri avtomobillar soni o‘shish pragnozi va chorahadagi harakat jadalligining matematik modeli ishlab chiqildi. Nukus shahar yo‘lovchi transporti faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha va shahar ko‘cha-yo‘llarini tasniflash bo‘yicha hamda asosiy piyodalar va velosiped aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ishki ishlar vazirligi Yo‘l harakati havfsizligi boshqarmasi Ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘limi mavjud ma‘lumotlar bazasida Nukus shahri bo‘yicha yillar kesimida 01.01.2023 yilga qadar ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalari soni haqida bergan ma‘lumoti asosida Nukus shahrining avtotransport vositalari sonining matematik model yordamida istiqboldagi prognozini ishlab chiqildi.


$$\hat{y} = 5374,8 * X - 10830482$$

Topilgan modelning adekvatligini tekshirilib, korrelyatsiya koeffitsienti

quyidagicha natijaga erishildi:

$$r=0,994186$$

Ishlab chiqilgan chiziqli model yordamida avtotransportlarning istiqboldagi o'sish prognozi 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm. Avtotransportlarning istiqboldagi o'sish prognozi

Nukus shahri aholisiga transport xizmati ko'rsatish sifatini oshirish uchun yangi avtobus yo'nalishlari tavsiya etildi (15-rasm).

Bundan tashqari Nukus shahrining jamoat transportini istiqbolli rivojlantirish uchun quydagi istiqbolli rejalar taklif etildi:

Jami yo'nalishlardagi avtobuslar sonini 160 taga yetkazish;

O'zbekiston shox guzari, A.Dosnazarov, Chimboy guzari, Ye.Alako'z, T.Qaipbergenov, Xo'jayli guzari, N.Japaqov, N.Sarayev, S.Kamalov ko'chalarida jamoat transporti uchun alohida yo'lak tashkil etish;

Nukus shahri jamoat transportining istiqbolli tarmog'ini ishlab chiqish;

Nukus shahri bosh avtovokzalida transport bog'lamlarini samarali tashkil etish uchun uning hududini muvofiqlash;

Qoraqalpoq Davlat universiteti hududining bir qismida transport bog'lamasini tashkil etish.



15-rasm. Taklif qilingan yangi avtobus yo'nalishlari

Muvozanatli va barqaror transport tizimini shakllantirish uchun, avvalo, jamoat transportidan aholining tez, uzluksiz va xavfsiz foydalanishini ta'minlash zarur. Jamoat transportining rivojlanishi dunyoda avtomobil tirbandligiga qarshi kurashning ustuvor va eng samarali chorasi sifatida tan olingan.

1-bob 1.5-§ da keltirilgan naturaviy eksperiment natijalarni hisobga olgan holda, amaldagi ShNK 2.07.01-03* me'yorida shahar ko'chalari va yo'llari tasnifiga tavsiya ishlab chiqildi va tavsiya etilayotgan tasnif 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Shahar ko'chalari va yo'llarining tavsiya etilayotgan tasnifi

Ko'chalar va yo'llar toifalari	Ko'chalar va yo'llarning asosiy vazifalari
1	2
Shahar ahamiyatidagi magistral ko'cha-yo'llar.	Magistral yo'l aralash foydalanish, tijorat, turar-joy, kichik tijorat maqsadlarida foydalanishdagi yo'l,
Kollektor yo'llari (jamlovchi ko'chalar).	Kirish yo'li bo'lib shakli ko'pincha chiziqli binolar, tarvaqaylab ketgan bloklar bilan. Harakat jadalligi soatiga 400 dan 800 gacha bo'lgan tor ko'chalar;
Tuman ahamiyatidagi yo'llar.	Turar-joy, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari aralash foydalanish bilan kirish ko'chasi/magistral yo'l.
Mahalliy ahamiyatdagi ko'cha-yo'llar.	Mahalliy asosiy ko'chalar shaharlarning markazida yoki kichik va o'rta shaharlarning markazlarida joylashgan. Maxsus foydalanish ehtiyojlari: piyodalarning yo'l bo'ylab va yo'l ustidan o'tishi, to'xtash joyi, yetkazib berish va olib ketish, avtobus yoki tramvay ko'rinishidagi mahalliy jamoat transporti;

Turar joy maskani (mahalla) ichki yo'llari (boshi berk ko'chalar).	Kirish yo'llari asosan terassali va alohida uylar bilan qoplangan, Faqat 150 avt/soat dan kam bo'lmagan avtotransport jadalligiga ega turar-joy maskanlaridagi yo'l;
Turar-joy maskanlari (kvartallar) yo'llari.	Qatorlar, terasli va yakka tartibdagi uylar va harakat jadalligi 400 avt/soat dan kam bo'lgan harakatlanishga ega kirish yo'li;
Jamoat – ishchi va savdo hududlari yo'llari.	Turar-joy binolarining doimiy jabhasi bilan zich tijorat maqsadlarida foydalanish. Maxsus foydalanish talablari: piyodalar yo'l bo'ylab va yo'l ustidan o'tishi, to'xtash joyi, yetkazib berish va olib ketish, mahalliy jamoat transporti va odamlarning umumiy mavjudligi;
Tijorat (xududlari) tumanlaridagi yo'llar.	Ko'pincha alohida binolar va tegishli avtomobil to'xtash joylariga ega bo'lgan katta er uchastkalari.
Sanoat hududi (zonasi) yo'llari.	Harakati jadalligi 800 dan 1500 avt / soatgacha va undan yuqori bo'lgan yo'l;
O'tish joylari bo'lmagan yo'llar (Xalqa yo'llar).	Bino jabhalari ko'chaga qaragan holda yoki o'zlashtirilmagan joylarga yaqinlashganda yoki qurilgan hudud ichida joylashgan yo'llar.


Piyodalar infrastrukturasi asosiy karkazini Do'stlik kanali yoqasi, O'zbekiston guzari ko'chasi va Dosnazarov ko'chalariga chiquvshi Abdambetov, Qoraqalpog'iston, Rashidov, Beruniy, va Jumanazarov ko'chalar tomonidan shakllantirilgan.

Bosh rejada asosiy ko'chalarda harakat oqimiga halaqit bermaslik va piyodalarning havfsizlik darajasini kushaytirish ushin yangi ko'chadan tashqari piyodalar o'tish jo'ylar rejalashtirish tavsiya qilindi (16-rasm).



16-rasm. Yangi ko'chadan tashqari piyodalar o'tish jo'ylari.

Nukus shahrining bosh rejasida asosiy magistral ko'chalarda velomarshrutlarni rivojlantirish rejalashtirilgan. Velosiped infrastrukturasi rivojlantirish 145,3 km yangi velosiped yo'llarini qurishni va 15,2 km mavjud velosiped yo'llarini qayta qurishni o'z ichiga oladi



17-rasm. Nukus shahrining rejalashtirilgan velosiped karkasi.

Nukus shahrida velomashrutlarni rivojlantirish bu matorlashmagan transporti infrastruktursaining rivojlanishga va shahar hududida muqobil ekologik muhitni yaratishga yordam beradi.

XULOSA

“Nukus shahrida transport infrastrukturasi rivojlantirish tendentsyalari” nomli mazkur ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi natijalar olindi va xulosalar qilindi:

1. Nukus shahri uchun ko‘cha-yo‘l tarmog‘i zichligi ko‘rsatkichi Toshkent va jahonning boshqa shaharlariga nisbatan juda kam bo‘lib, u o‘rtacha ko‘rsatkichdan 1.8 baravarga kam, ya‘ni $[\delta_{o'r}] = 1.6-2.2 > 0.99 \text{ km/km}^2$ (aholisi 100-250 ming. dan ortiq shaharlar uchun);

2. Nukus shahri ko‘chalari va yo‘llari SHNQ 2.07.01-03* me‘yori bilan taqoslanib tasmalar eni va harakat tezligi me‘yorda ko‘rsatilgan ko‘rsatkichdan tasmalar eni 0,25-0,5 metrga va harakat tezligi 20 km/soatga pastligi aniqlandi;

3. Nukus shahri aholisining tez suratlar bilan o‘shishi natijasida mavjud 6 ta avtobus yo‘nalishi va 55 ta taksi yo‘nalishlarining chetki mahallalarga boruvchi yo‘nalishlar yuklanganlik darajasi oshishi natijasida xizmat ko‘rsatish samaradorligining pastligi aniqlandi;

4. iRAP dasturi bo‘yicha tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, harakat jadalligi ko‘p bo‘lgan chorrahalarda va yo‘lni ko‘ndalang kesimida tartibsiz kesib o‘tuvchi piyodalar o‘tish joylarida dastur bo‘yicha xavf darajasini yuqori deb baholandi.

5. Nukus shahrida avtotransportlar soni o‘shishi va chorradagi tarkibi modeli ishlab chiqildi.

6. Nukus shahri aholisiga transport xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish uchun faoliyat ko‘rsatayotgan 6 ta avtobus yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shimcha yangi 9 ta avtobus yo‘nalishlarini rejalashtirib, faoliyat ko‘rsatayotgan barcha yo‘nalishlarda yo‘l haqi to‘loibning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bo‘yicha tavsiya ishlab chiqildi;

7. SHNK 2.07.01-03* me‘yorida keltirilgan shahar ko‘chalari va yo‘llari toifalariga chet el tajribasidan foydalanib ko‘cha yoki yo‘lning shaharsozlik ahamiyati va funksional maqsadini aks ettiruvchi va loyiha parametrlarini belgilaydigan ko‘cha-yo‘l tarmog‘ining tasnifi ishlab chiqildi;

8. Nukus shahrining bosh rejasida asosiy magistral ko‘chalarda 145,3 km yangi velosiped yo‘llarini qurishni va 15,2 km mavjud velosiped yo‘llarini qayta qurish orqali velomarshrutlarni rivojlantirish tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РbD.26/04.07.2023.Т.11.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ АРХИТЕКТУРНО-
СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЖУМАБАЕВ ДАУЛЕТБАЙ МАРАТОВИЧ

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ
ГОРОДА НУКУСА**

18.00.02 - Районирование. Градостроительство. Планирование сельских населённых
пунктов. Ландшафтная архитектура. Архитектура зданий и сооружений.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована V2023.4.PhD/A149 высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках: узбекском, русском, английском (резюме), на веб-странице Научного совета (<http://taqi.uz/interactive-services/taqi-scientific-activities/specialized-councils/autoref.html>) и «ZiyoNet» на информационно-образовательном портале (www.ziyo.net/uz).

**Научный
руководитель:**

Хотамов Асадулла Тоштемирович
доктор технических наук, профессор

**Официальные
оппоненты:**

Адилов Зарифжон Химматович
доктор архитектурных наук, профессор
Халиков Алишер Исан ўғли
доктор философии технических наук,
доцент

**Ведущая
организация:**

“O‘zshaharsozlikLITI” ГУП

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета при Ташкентском архитектурно-строительном университете по присуждению ученых степеней PhD 26/04.07.2023.Т.11.03 в _____ часов «__» «_____» 2024 года (Адрес: город Ташкент, Юнусабадский район, улица Янги шахар, дом 9, зал заседаний Ташкентского архитектурно-строительного университета.Тел.: +998 (55) 508 02 56. e-mail: devon@taqi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского архитектурно-строительного университета (регистрированный под №__) (адрес: 100194, г.Ташкент, Юнусабадский район, улица Янги шахар, дом 9, тел.: +998 (71) 142 65 85).

Автореферат диссертации представлен « _____ » 2024 года .

(« __ » « _____ » 2024 реестрный протокол № _____).

Ш.Х. Юнусов

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, д.арх.н., доцент

Ф.А. Абдихалилов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

И.С. Шукуров

Председатель научного семинара при Научном совете, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире к 2030 году большая часть населения мира будет сосредоточена в городах, а в 2050 году более 80% населения мира будет жить в городской среде. Учитывая эти проблемы, снижение пропускной способности существующей улично-дорожной сети в городах, возникновение пробок транспортных средств на большинстве одноэтажных перекрестков, снижение качества обслуживания городского общественного транспорта, а также нехватка мест для парковки и хранения автотранспортных средств в торговых комплексах, общественных объектах, жилых домах, особенно в старых городах со сложной планировкой, требуют особого подхода к решению этих проблем. В связи с этим особое внимание уделяется вопросам городской транспортной инфраструктуры в развитых зарубежных странах, в том числе в США, Англии, Германии, Франции, Сингапуре, Италии, Японии, Южной Корее. В этих вопросах актуальными являются, в частности, создание современной системы пассажирского транспорта, отвечающей требованиям к услугам транспортной инфраструктуры для развития городских и междугородных связей, проектирование и эффективная организация движения транспорта и пешеходов.

В мире проводится широкомасштабная научно-исследовательская работа по комплексному развитию городской транспортной инфраструктуры, в частности, по снижению уровня загруженности городской улично-дорожной сети и повышению эффективности обслуживания городского общественного пассажирского транспорта. В этом направлении приоритетными задачами являются, в частности, улучшение технических параметров улично-дорожной сети и увеличение количества видов общественного транспорта, разработка карты маршрутов общественного транспорта с использованием технологий интеллектуальных транспортных систем, предоставление населению информации о маршрутах общественного транспорта в разрезе регионов, реализация научно-обоснованных исследований для обоснования инвестиций в развитие транспортной системы. Вместе с тем актуальными задачами на сегодняшний день являются развитие альтернативной городской транспортной инфраструктуры для обеспечения активной жизни городского населения и повышения ее эффективности.

В результате увеличения количества и изменения структуры движения, снижения скорости движения на улично-дорожной сети в городах республики наблюдается снижение пропускной способности дороги. Исходя из функционального назначения городских улиц, особое внимание уделяется внедрению проектных решений, определяющих стандарты безопасности движения и технические параметры дороги. Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан №ПФ-60, в Стратегию развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы включены «Адаптация дорожной инфраструктуры к международным стандартам, полная цифровизация системы управления дорожным движением, все необходимые меры по безопасному передвижению на дорогах. Определен ряд задач по созданию подходящих условий для участников, уделению особого внимания

обеспечению широкого участия общественности в работе в этой сфере и эффективному использованию средств, направляемых через информационного портала «Открытый бюджет» в этом направлении. С учетом этих задач, в частности, развитие единой транспортной системы, соединяющей все виды транспорта, является важным фактором, обеспечивающим создание на основе научных исследований возможности согласования и оптимизации функциональных возможностей движения между крупными городами на основе согласования источников ежедневного движения транспорта и технических параметров дорог, а также повышение безопасности городского транспорта.

Указы Президента Республики Узбекистан от 9 декабря 2019 года № ПФ-5890” о мерах по глубокому реформированию системы дорожного хозяйства Республики Узбекистан“, от 14 февраля 2017 года № ПФ-4954” о мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления дорожным хозяйством”, от 7 декабря 2022 года № июльский выпуск ПК-311 “О создании дополнительных удобств при управлении автотранспортными средствами и осуществлении деятельности такси без направления”, Постановления Кабинета Министров “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления автомобильным транспортом” от 6 марта 2018 года № ПП-3589 “о мерах по реформированию системы общественного транспорта” от 16 февраля 2023 года № ПП-59 "О мерах по реформированию системы общественного транспорта" от 6 декабря 2007 года № 250 "Об утверждении генерального плана города Нукус", "о мерах по дальнейшему развитию автомобильно-дорожной инфраструктуры и совершенствованию системы организации дорожного движения" от 26 июля 2018 г. N 584, данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных другими нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности по развитию транспортной инфраструктуры.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках II приоритетного направления развития науки и технологий республики "Энергетика, энергия и ресурсосбережение".

Степень изученности проблемы. В вопросах развития городской транспортной инфраструктуры и совершенствования безопасности движения в СНГ В.Ф.Бабкова, В.И.Гаврилюка, А.В.Косова, И.А.Бахриева, Е.Н.Эсовика, Д.Н.Власова, за рубежом - С.Голдберга, М.Раффа, Ф.Витцлера, Френга Хейта, Рональда Дрю, Р.Байетта, Р.Уоттса, в Узбекистане - А.Ф.Шахидов, А.Садырходжаев, К.Х.Азизов, И.С.Садыков, А.Х.Серпов, Ж.И.Садыков, И.С.Шукуров, А.Худойбердиев, Ж.Юнусов, Қ.Т.Усманов, Ф.А.Абдыхалилов, З.И.Худойбердыев, А.А.Сатторовы проводили научные исследования.

Многие проблемы, связанные с транспортной системой нашей страны, в том числе классификация городских улиц и дорог исходя из функциональных зон городов, предъявляемые к ним мэротехнические требования, нормативные требования к благоустройству и оснащению городских улиц и дорог, не до конца разработаны, еще не глубоко изучены и остаются нерешенными, что

свидетельствует о недостаточном внимании к специфическим методам совершенствования проектных решений и расчетным процессам городской уличной сети.

Связь исследования с научными планами высшего учебного заведения, где была выполнена диссертация. Научно-исследовательская работа выполнялась в соответствии с планами научно-исследовательских работ Ташкентского архитектурно-строительного университета по научному направлению № 40/2023 «Разработка Генерального плана развития транспорта и дорожно-транспортной инфраструктуры города Нукуса».

Целью исследования разработка рекомендаций по увеличению возможностей развития транспортной инфраструктуры города Нукуса.

Задачи исследования:

Проведение анализа плотности улично-дорожной сети города Нукуса;

Экспериментальное исследование интенсивности и структуры транспортного потока на перекрестках на территории города Нукуса;

